



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 18-mart

Nº 2112

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Ravshanov Xurshid Sagdullayevich – arizasiga asosan va sudyaning qasamyodini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 1-2-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Ohangaron tumanlararo sudi raisining o'rinbosari lavozimidan ozod etilsin;

Ibodullayev Anvar Abdujabborovich – arizasiga asosan va Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2,10-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Shahrisabz tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov